



**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2021- YIL YANVAR




**Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: 76 225-65-76**

Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 381,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 109,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (91,0 %)ni tashkil etdi.



B–Tog‘kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat D-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 60,2 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 17,5 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 18,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 12,9 % ga o'sishi kuzatildi.


**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi yillar bo'yicha ulushi, % da



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	20,3	21,2	0,9
Neft, ming t.	6,5	0,0	-6,5
Qattiq tuz (osh tuzidan tashqari), ming t.	3,1	1,6	-1,5
Qum, ming t.	5,9	2,5	-3,4
Chaqiq tosh, ming t.	13,5	3,6	-9,9
Yodgorliklar, pardozlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qumtosh va boshqa toshlar, ming t.	0,02	0,004	-0,02

Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 347,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,0 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
yillar bo'yicha ulushi, % da



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2020- yilning yanvar oyida - 0,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,4 % (0,4 %), o'rta-quyi texnologiyali - 19,7 % (19,4 %) va quyi texnologiyalisi - 70,9 % (68,4 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,6 % (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 100,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,5 % (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 398,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 51,9 % (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 123,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 23,4 % (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 94,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 0,6 % ni (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 103,1 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,8 ming tonna portlandtsement (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 367,4 %), 4,1 ming tonna paxta tolasi (186,6 %), 21,2 ming tonna toshko'mir (104,7 %), 0,8 ming tonna paxta tviti (lint) (226,8 %), 3,1 ming tonna kalava ip (109,0 %), 6,1 ming tonna paxta chigiti (143,9 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Paxta tolasi , ming t.	2,2	4,1	1,9
Tozalangan paxta yog'i , ming t.	0,7	0,5	-0,2
Un , ming t.	11,7	10,1	-1,6
Portlandsement , ming t.	4,3	15,8	11,5
Ko'mir , ming t.	20,3	21,2	0,9

Metallurgiya sanoati
(2021- yil yanvar)




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish
(2021- yil yanvar)



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(2021- yil yanvar)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 89,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, 23,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,6 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 80,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar)




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 32,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 78,8 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 0,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 39,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 93,8 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2021- yilning yanvar oyida 46,5 % ni, fizik hajm indeksi 27,0 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 161,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish sanoati (2021- yil yanvar)




2020- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 112,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,3 % fizik hajm indeksi 109,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 18,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (2021- yil yanvar)

2020- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 135,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar oyida 0,3 % fizik hajm indeksi 97,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish (2021- yil yanvar)




2020- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 21,4 % ga kamaygan. Shuningdek, 2021- yilning yanvar oyida 8,6 % ni, fizik hajm indeksi 134,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 29 976,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish (2021- yil yanvar)



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (2021- yil yanvar)



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 2021- yilning yanvar oyida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (4,6 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 14,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi


yil boshidan ulushi, % da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	10,6	10,6	-0,02
Issiqlik energiyasi, ming gkal	10,1	7,6	-2,5
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	4,4	6,2	1,8


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

yil boshidan ulushi, % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	199,5	285,0	85,5
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	1751,5	2509,0	757,5
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	1321,1	1302,6	-18,5
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	871,8	636,1	-235,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 43,3 % ga oshganligi kuzatildi, shuningdek, xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishishlov berish bo'yicha xizmatlar 27,0 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 120,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 31,6 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,4 % ni (2020- yil yanvar oyida 0,4 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib 19,2 % ni, shuningdek, Sho'rchi tumani 16,6 % ni, Denov tumani 16,3 % ni, Jarqo'rg'on tumani 8,8 % ni, Sariosiyo tumani 5,0 % ni hamda Sherobod tumani 5,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (106,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bandixon (122,4 %), Jarqo'rg'on (115,1 %), Termiz (112,8 %), Uzun (112,7 %), Qiziriq (111,7 %), Boysun (110,1 %), Sariosiyo (109,1 %), Angor (108,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar oyida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	120,3	100,0	106,1
Surxondaryo viloyati			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	23,1	19,2	103,4
Termiz shahri			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	4,6	3,8	108,5
Angor			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	0,3	0,3	122,4
Bandixon			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	3,9	3,3	110,1
Boysun			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	19,6	16,3	105,5
Denov			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	10,6	8,8	115,1
Jarqo'rg'on			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	4,8	4,0	105,4
Qumqo'rg'on			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	3,4	2,8	111,7
Qiziriq			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	4,3	3,6	106,5
Muzrabot			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	3,6	3,0	89,2
Oltinsoy			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	6,1	5,0	109,1
Sariosiyo			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	5,2	4,3	112,8
Termiz			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	4,8	4,0	112,7
Uzun			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	6,0	5,0	103,9
Sherobod			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	20,0	16,6	103,5
Sho'rchi			

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar oyida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 74,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 19,6 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

2021- yilning yanvar oyida

	Mlrd. so'm		Ulushi % da	O'sishi % da
	381,1		100,0	109,6
	Surxondaryo viloyati *			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	51,6	13,5	106,5	
	Termiz shahri			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	0,4	0,1	107,2	
	Bandixon			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	40,3	10,6	104,9	
	Denov			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	27,2	7,1	150,4	
	Qumqo'rg'on			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	7,7	2,0	47,0	
	Muzrabot			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	46,3	12,2	101,5	
	Sariosiyo			

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	6,7	1,8	114,4
Uzun			

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	45,4	11,9	92,3
Sherobod			

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	29,3	7,7	93,0
Sho'rchi			

**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi, % da		Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da
47,0	Muzrabot	106,5
92,3	Sherobod	103,9
93,0	Sho'rchi	103,5
101,4	Termiz	112,8
101,5	Sariosiyo	109,1
104,6	Boysun	110,1
104,9	Denov	105,5
106,0	Angor	108,5
106,5	Termiz sh.	103,4
106,6	Jarqo'rg'on	115,1
106,8	Oltinsoy	89,2
107,2	Bandixon	122,4
113,2	Qiziriq	111,7
114,4	Uzun	112,7
150,4	Qumqo'rg'on	105,4

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Sariosiyo (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 12,2 % i), Jarqo'rg'on (22,3 %), Sherobod (11,9 %), Qumqo'rg'on (7,1 %) hamda Termiz (4,8 %) sezilarli darajada oshdi.

Surxondaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Termiz shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 13,5 % i), Jarqo'rg'on (22,3 %), Sariosiyo (12,2 %), Sherobod (11,9 %) hamda Denov (10,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bandixon (0,1 %), Qiziriq (1,1 %) hamda Oltinsoy (1,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jarqo'rg'on (386,4 ming so'm), Termiz (237,0 ming so'm), Sherobod (232,4 ming so'm) va Sariosiyo (219,3 ming so'm) tumanlarida hamda Termiz shahrida (284,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (143,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 45,3 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida – 127,8 ming so'mni, Sho'rchi tumanida – 95,0 ming so'mni, Termiz tumanida – 66,8 ming so'mni, Denov tumanida – 50,4 ming so'mni hamda Jarqo'rg'on tumanida – 48,0 ming so'mni tashkil etdi.


**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
2021- yilning yanvar oyida, ming so'm

	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari		
	143,5		45,3		
	Surxondaryo viloyati				
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	284,6	127,8		54,2	34,5
	Termiz shahri			Angor	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	4,9	4,1		51,6	33,7
	Bandixon			Boysun	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	103,6	50,4		386,4	48,0
	Denov			Jarqo'rg'on	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	115,2	20,2		38,0	29,6
	Qumqo'rg'on			Qiziriq	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	54,1	30,0		29,3	20,5
	Muzrabot			Oltinsoy	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	219,3	28,7		237,0	66,8
	Sariosiyo			Termiz	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	38,7	27,8		232,4	30,6
	Uzun			Sherobod	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari			
	139,3	95,0			
	Sho'rchi				

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 2021- yilning yanvar oyida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 135,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,6 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bandixon, Muzrabot, Uzun va Oltinsoy tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 % dan), Qiziriq (98,5 %), Angor (91,2 %) hamda Boysun (91,0 %) tumanlarida kuzatildi.




Актив
Чтобы
перей

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sherobod (17,3 %), Sariosiyo (19,9 %) va Jarqoʻrgʻon (22,2 %) hamda Qumqʻorgʻon (28,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi
tashkil etilgan sanoat korxonalari**
(2020- yil 1- fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4131 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 729 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,6 % i) Termiz shahriga, 515 tasi (12,5 %) Denov tumaniga, 274 tasi (6,6 %) Sho'rchi tumaniga, 271 tasi (6,6 %) Termiz tumaniga, 254 tasi (6,1 %) Qumqo'rg'on tumaniga, 252 tasi (6,1 %) Sariosiyo tumaniga, 246 tasi (6,0 %) Uzun tumaniga hamda 242 tasi (5,9 %) Bandixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2021- yilning yanvar oyida viloyatda 71 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 15 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 21,1 %) Denov tumanida, 12 tasi (16,9 %) Termiz shahrida tashkil etildi.


Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligida Termiz shahri (729 ta), Denov (515 ta), Sho'rchi (274 ta), Termiz (271 ta) hamda Qumqo'rg'on (254 ta) tumanlari qayd etildi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 5 taligi
(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 5 taligi
(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra)



2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligiga esa Boysun (52 ta) Qiziriq (181 ta), Oltinsoy (200 ta), Angor (213 ta) hamda Sherobod (226 ta) tumanlari qayd etildi.